

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY, IJTIMOY, MADANIY VA
EKOLOGIK HUQUQLAR**

Ilmiy raxbar: Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika institute o'qituvchisi.

Nurmatova Yasmina

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-nazariy maqola O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarining zamonaviy rivojini, ayniqsa iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarning dolzarb muammolarini tahlil qiladi. Maqolada O‘zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalari asosida ushbu huquqlarni himoya qilish va rivojlantirishga qaratilgan siyosat yuritishga qaratilgan sa’y-harakatlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada iqtisodiy tengsizlik, ish joylarini yaratish, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, madaniy xilma-xillikni saqlash, ijod erkinligini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik ong-tafakkurni shakllantirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Maqola O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelajakdagi harakatlar uchun tavsiyalar berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, ijtimoiy, faollik, huquqlar, konstitutsiyaviy huquq, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, ilm-fan, renessans, kreativ, yoshlar, fuqarolik jamiyati, texnologiya, innovatsion faoliyat, yoshlar, vaqt

Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning, ayniqsa, talabalarning ijtimoiy va innovatsion faolligini oshirishda inson huquqlari dolzarb masalalardan biridir. Inson huquqlari - insoniyatning umumiy qadriyatlari bo‘lib, ularning himoyasi va rivojlanishi har bir davlatning asosiy vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasi, mustaqillikka erishganidan so‘ng, inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirishga qaratilgan siyosat yuritishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Konstitutsiya va xalqaro huquq normalari asosida barcha fuqarolarga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar kafolatlangan.

Ushbu maqola konstitutsiyaviy huquqdagi juda dolzarb mavzulardan biri – inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklaridan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari tahlili va O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarning zamonaviy holatini va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ushbu huquqlarning mazmuni, ularni himoya qilishning huquqiy asoslari, amaliy jihatlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Ushbu ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarning zamonaviy

holatini va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ushbu huquqlarning mazmuni, ularni himoya qilishning huquqiy asoslari, amaliy jihatlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan beri inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirishga qaratilgan siyosat yuritishga qaror qildi. Konstitutsiya va xalqaro huquq normalari asosida barcha fuqarolarga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar kafolatlangan. Biroq, globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ushbu huquqlarning dolzarbligi va ularni amalga oshirishning yangi usullarini izlash zarurati tug‘iladi. Bilamizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar kafolatlangan. Ushbu huquqlar insonning munosib hayot kechirishi, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda to‘liq ishtirok etishini ta‘minlashga qaratilgan. Qonunchilikda inson va fuqarolarning asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini samarali ta‘minlash faqatgina normalarni belgilab qo‘yish bilan emas, balki davlat tomonidan amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liqdir. Bu tizimning samaradorligi davlatda demokratiyaning huquqiy tamoyillari va institutlarining rivojlanish darajasiga, iqtisodiyotning holatiga, hayot ne‘matlarini taqsimlash usuli, jamiyatdagi ma‘naviy muhitga, uning huquqiy darajasiga, rivojlangan fuqarolik jamiyati institutlari mavjudligi va davlat hokimiyati faoliyati tizimida ayrim elementlarning mavjudligiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga ko‘ra, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Ushbu qoida davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda boshqa shaxslarga Konstitutsiyada belgilangan insonlarning huquqlarini buzmaslik majburiyatini yuklaydi. Inson va fuqarolarning asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini ta‘minlashda huquqiy kafolatlarning yana bir turi qonunchilik va ijroiya davlat organlari tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida huquqlarini buzilishini oldini oluvchi va oqibatini bartaraf etuvchi normalarning belgilanganidir.¹

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunlarni takomillashtirish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Inson va fuqarolar huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy-siyosiy kafolati – bu davlatda amal qilib turgan siyosiy tizimning barqarorligidir. Bunda ijtimoiy-siyosiy kafolatlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohani belgilash,

¹ D.A. Anvarova, X.N. Safarova. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar o‘quv qo‘llanma / – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 136 b.

islohotlarni izchil amalga oshirish, tegishli davlat organlarini tashkil etish va ularning vazifalarini aniq belgilab qo'yish, davlat budjetini asosiy qismini ushbu sohalarni rivojlantirish uchun sarf etish, xalqaro hamkorlik, ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda kamida 155 ta davlat o'z fuqarolari mamlakat qonunlariga muvofiq yoki Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi xalqaro shartnomalarga muvofiq sog'lom muhitda yashash huquqiga ega ekanligini tan oladi. Himoya choralarga qaramay, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, barcha o'limlarning 23 foizi havo ifloslanishi, suvning ifloslanishi va kimyoviy ta'sir qilish kabi "atrofmuhit xavflari" bilan bog'liq. hu kabi statistic ma'lumotlarga ko'ra, yaqinda BMT Inson huquqlari kengashi davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish majburiyatlarini, jumladan, atrof-muhit muammolarini hal qilish uchun yanada kuchliroq choralar ko'rish majburiyatlarini tasdiqlovchi rezolyutsiyani qabul qildi².

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Konstitutsiya va xalqaro huquq normalari asosida ushbu huquqlar kafolatlangan va ularni amalga oshirish uchun bir qator qonunlar va dasturlar qabul qilingan. Iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiylashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilish kabi ishlar ushbu huquqlarni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu sohalarda hali ham muammolar mavjud³. Masalan, iqtisodiy tengsizlik, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida sifatning bir xilligi yo'qligi, madaniy merosni himoya qilishda qiyinchiliklar, ekologik muammolarni hal qilishda yetarli darajada resurslarning etishmasligi kabi muammolar mavjud. Kelajakda ushbu huquqlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini sifat jihatidan yaxshilash, madaniy hayotni rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha davom etayotgan ishlar inson huquqlari sohasida muhim yutuqlarga erishishga imkon beradi. Biroq, ushbu sohalarda mavjud muammolarni hal qilish va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari to'g'risida jiddiy fikr yuritish zarur. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida ushbu huquqlarni himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelajakdagi harakatlar uchun tavsiyalar berishga qaratildi.

² <https://constitution.gov.uz/oz/site/faq?page=9&per-page=10>

³ D.A. Anvarova, X.N. Safarova. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar o'quv qo'llanma / – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 99- b.

Xulosa qilib aytganda, hammaga yashash uchun har kuni 24 soat beriladi. Hayot mana shu- bizga berilgan lahzalar sarhisobi. Tog‘ri, u qisqa. Ammo qadriga yetib, o‘tkinchi hayotning mohiyatini tushunib oqilona yashalsa, bu- bir marta huzurlanib yashash uchun yetarli fursat. Garchi hayot yillar bilan o‘lchansa ham, biz umr deganda baxtli daqiqalar, go‘zal xotiralarni eslaymiz. Aytishadi-ku, bir kunlik umrda ham bir asrlik hayot kechirsa bo‘ladi. Buning uchun umrga munosib bo‘lish kerak.⁴ O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun strategik yo‘nalishlar orqali davom ettirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarning holatini chuqur tahlil qilish, ularni himoya qilish va rivojlantirish bo‘yicha muhim masalalarni ko‘tarish va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari albatta, biz yoshlar oldida turgan dolzarb mavzu va mas‘uliyatdir. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ushbu huquqlarni himoya qilish va rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelajakdagi harakatlar uchun tavsiyalar berishga qaratildi.

REFERENCES

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 55-bet.
2. Shuxrat Sattorov, “Biz g‘alaba qozonamiz”, “Bilim va intellektual salohiyat” nashriyoti 2018
3. <https://mininnovation.uz/oz/news/2322> <https://xs.uz/uz/post/alisher-sadullaev-yoshlar-uchinchi-renessans-drajverlari-bolaoladimi>
4. D.A. Anvarova, X.N. Safarova. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar o‘quv qo‘llanma / – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 136 b.
5. PF-6097 sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi prezident farmoni. <https://lex.uz/docs/-5073447>
6. <https://constitution.gov.uz/oz/site/faq?page=9&per-page=10>

⁴⁴ Shuxrat Sattorov, “Biz g‘alaba qozonamiz”, “Bilim va intellektual salohiyat” nashriyoti 2018